



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2871-2
2025 - yil 28 - Oktabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
ELEKTR ENERGIYASI, NEFT MAHSULOTLARI
VA GAZDAN FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH
INSPEKSIYASI BOSHLOG'INING
BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-iyuldagi 472-son "Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarfning ruxsat etilgan me'yorlarini hisoblash hamda tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Boshliq v.v.b
22-Oktabr 2025-yil
12 son



ESHQO‘ZIYEV XURSHIDJON
MUSAJONOVICH

Kelishildi:

Vazir
22-Oktabr 2025-yil



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Vazir
24-Sentabr 2025-yil



MIRZAMAHMUDOV
JO‘RABEK
TURSUNPULATOVICH

Raxbar o'rinbosari
19-Sentabr 2025-yil



TOHIROV ODILJON
ZOHIDJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi,
neft mahsulotlari va gazdan
foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi
boshlig'ining 2025-yil 22-oktabrdagi
12-son buyrug'iga
ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2017-yil 6-martdagi 2-son "Elektr energiyasini elektr tarmoqlari bo'ylab uzatish va taqsimlashda texnologik yo'qotishlarning normativlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2871, 2017-yil 31-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 211-modda).
2. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 10-iyuldagi 8-son "Elektr energiyasini elektr tarmoqlari bo'ylab uzatish va taqsimlashda texnologik yo'qotishlarning normativlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 17-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2871-1, 2018-yil 14-iyul) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2018 y., 10/18/2871-1/1512-son).
3. O'zbekiston Respublikasi energetika vazirining 2024-yil 8-iyuldagi 90-son buyrug'iga ilovaning 2-bandini (ro'yxat raqami 3551, 2024-yil 14-avgust) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2024 y., 10/24/3551/0660-son).